

BILASIZMI?



Bilasizmi?

Hisobga olish uskunalarini qiyoslovdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari Davlat xizmatlari markazi yoki YaIDXP (<https://my.gov.uz>) orqali amalga oshirish (<http://lex.uz/docs/4481469>) mumkin.

Bunda, hisobga olish uskunalarini qiyoslash davriyligi:

yuridik shaxslar uchun – 4 yil;

jismoniy shaxslar uchun – 8 yilni tashkil etadi.

Hisoblagichni qiyoslashdan o'tkazish davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun quyidagicha yig'im undiriladi:

jismoniy shaxslardan (maishiy ehtiyojlar uchun elektr energiyasidan foydalanuvchi jismoniy shaxslardan tashqari) BHMning 20 foizi (60 ming so'm);

hududiy elektr tarmoqlari korxonasidan (maishiy ehtiyojlar uchun elektr energiyasidan foydalanuvchi jismoniy shaxslar uchun) BHMning 15 foizi (45 ming so'm);

yuridik shaxslardan BHMning 1,5 baravari (450 ming so'm) miqdorida.

"Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga belgilangan yig'imning 50 foizi miqdorida chegirma qo'llaniladi.

Abdumanof Umridinov - So'x tumani adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi sho''ba mudiri

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-31 13:48:31